

e-mail: fin@uks.uz

Asosiy vazifalari: jamiyat korxonalari barqaror rivojlanishiga qaratilgan o'rta muddatli va uzoq muddatli dasturlarining ishlab chiqilishi va amalga tatbiq etilishida qatnashish; hisob-kitob mexanizmini takomillashtirish va to'lov intizomini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish; jamiyat korxonalarining moliyaviy faoliyatini tahlil qilish; Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va boshqa vazirlik, idoralarga taqdim etish uchun jamiyat korxonasi va tashkilotlarining moliyaviy xo'jalik faoliyatiga oid masalalari bo'yicha materiallar tayyorlash va tahlil qilish; jamiyat korxonalari va tashkilotlari faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlari haqida tezkor hisobotlarni tayyorlash va jamiyat rahbariyati, jamiyat apparatining manfaatdor boshqarmalariga taqdim etish; jamiyat korxonalari, tashkilotlarining bir oy, chorak va bir yil uchun moliyaviy ko'rsatkichlarini yig'ish, tizimga solish, o'rganish va tahlil qilish.

Iqtisodiyot va biznesni rejalashtirish departamenti

Boshliq: Abduraxmanova Rano Abdul-axatovna

Telefon: ekonom@uks.uz

e-mail: 78 140-74-18

Asosiy vazifalari: Korxonalarining barqaror rivojlanishi va respublika sohalarining mineral o'g'itlari va boshqa kimyoviy mahsulotga bo'lgan talabini qondirishga qaratilgan jamiyatning o'rta muddatli va uzoq muddatli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga tatbiq etish; jamiyat strukturaviy bo'limlari tomonidan mahsulot ishlab chiqarish prognoz ko'rsatkichlarini ta'minlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish; Raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan hamkorlik qilish va jamiyatning tuzulmaviy bo'linmalariga xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda, xo'jalik yurituvchi subyektlarning nizom jamg'armalaridagi davlatga qarashli bo'lgan aktivlar va aksiya paketlarini (hissalarini) shaxsiy mulkka realizatsiya qilishda ko'maklashish; aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda aksiyadorlar va kuzatuv kengashlarining rolini tubdan oshirishga, jamiyatlarning moliyaviy xo'jalik faoliyati natijalari uchun ijro organlarining aksiyadorlar oldidagi mas'uliyatini oshirishga qaratilgan korporativ boshqaruv tizimining yanada takomillashuvi uchun ishlarni tashkillashtirishda ko'maklashish; jamiyat korxonalari va tashkilotlarining ishlab chiqarish va moliyaviy iqtisodiy faoliyatini tahlil qilish.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, import xaridlarni optimallashtirish va jahon iqtisodiyotiga intergratsiyalashuv boshqarmasi

Bosh mutaxassis: Mamutov Paraxatdin Shamshetdinovich

Telefon: 78 140-74-19

e-mail: marketing@uks.uz

Asosiy vazifalari: Joriy va istiqboldagi talabni, shuningdek, ichki va tashqi bozor rivojlanishi yo'nalishlarini aniqlash maqsadida marketing tadqiqotlarini o'tkazish; Marketing va tashqi iqtisodiy faoliyat masalalariga bo'yicha xorijiy hamkorlar bilan biznes aloqalarini o'rnatish; joriy va istiqboldagi talabni, shuningdek, ichki va tashqi bozor rivojlanishi yo'nalishlarini aniqlash maqsadida marketing tadqiqotlarini o'tkazish, sanoat korxonalarining eksport salohiyatini kengaytirishga oid ishlarni muvofiqlashtirish, marketing va tashqi iqtisodiy faoliyat masalalariga bo'yicha xorijiy hamkorlar va biznes tuzilmalar bilan uzoq muddatli hamkorlik o'rnatish; Umumsohaviy vazifalarni bajarish maqsadida jamiyat sanoat korxonalarining marketing, ta'minot-sotuv va tashqi iqtisodiy faoliyati xizmatlari ishini muvofiqlashtirish, ularga xom ashyo, materiallar bilan ta'minlash va tayyor mahsulotni realizatsiya qilish kabi masalalarda ko'maklashish.

Investitsiya faoliyatini istiqbolli rivojlantirish departamenti

Boshliq: Kurbanov Akbar Djaxangirovich

Telefon: 78 140-74-82

e-mail: invest@uks.uz

Asosiy vazifalari: Sohani rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturlarini, shu jumladan, loyihalar ro'yxati va ularning moliyalashtirish manbalarini o'z ichiga olgan mahsulotni joylashtirishni (lokalizatsiyalashni) chuqurlashtirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqadi va yangilaydi, loyihaning xususiyatlarini hisobga olgan holda, belgilangan tartibda loyihani ishga tushirishdan oldingi investitsiyaviy taklif va pasport, biznes-reja , PTEO/TEO, PTER/TER va boshqa zaruriy axborotni o'z ichiga olgan hujjatlarning ishlab chiqilishi, kelishilishi va tasdiqlanishini muvofiqlashtiradi; tender (tanlov asosidagi) savdolarning o'z vaqtida o'tkazilishi, shartnomalarning tuzilishi, ekspertizasi va qayddan o'tishi monitoringini amalga oshiradi.

Ichki sotuvni muvofiqlashtirish bo'limi

Boshliq: Abdullaev Gayrat Nosir o'g'li

Telefon: 78 140-74-21

e-mail: tao@uks.uz

Asosiy vazifalari: qishloq xo'jaligining mineral o'g'itlarga, defoliant va boshqa turdagi kimyoviy mahsulotlarga bo'lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojini aniqlash va marketing o'tkazish; qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga kimyoviy mahsulotni yetkazib berish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish; har yili jamiyat korxonalaridan tomonidan ishlab chiqariladigan mineral o'g'itlar va kimyoviy mahsulotlarning maxsuslashtirilgan yarmarka savdolarini, shu jumladan, ko'rgazma-savdolarini o'tkazish; "Qishloqxo'jalikkimyo" HAJ bo'linmalari funksiyalariga tegishli bo'lgan qishloq xo'jaligini isloh qilish dasturini amalga oshirishda qatnashish; mineral o'g'itlar va kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarish va taqsimlashning yillik balanslarini shakllantirishda, qishloq xo'jaligini mineral o'g'itlar va kimyoviy mahsulotlar bilan ta'minlash bo'yicha hukumat qarorlari loyihalarini tayyorlashda qatnashish; ichki bozorda talabni o'rganish, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga mineral o'g'itlarni yetkazib berish uchun talabnomalarni umumlashtirish va shartnomalar tuzish.

Xodimlar bilan ishlash bo'limi

Boshliq: Aripov Voxid Valievich

Telefon: 140-74-12

e-mail: kadr@uks.uz

Asosiy vazifalari: Bo'lim funksional organlar ishini bajaradi: rejimli-maxfiy, harbiy-safarbarlik, soha korxonalarida va maxfiy rejimlarda harbiy xizmatga majburlarni band qilish, fuqaroviy muhofazasi, o'ta muhim va kategoriyalashtirilgan obektlar himoyasini tashkillashtirish ustidan nazorat (O'M va KO); apparat xodimlari, rahbarlar, korxonalar va tashkilotlarning bosh mutaxassislari, shuningdek, zaxiradagi kadrlarni tanlash, joylashtirish, hisobini yuritish, o'qishini tashkillashtirish, malakasini oshirish; jamiyat apparatida mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, nafaqalarni rasmiylashtirish; mehnat intizomi holati ustidan nazorat.

Buxgalteriya va korporativ hisoboti boshqarmasi

Boshliq: Babaev Bobur Baxrullaevich

Telefon: 140-74-70

e-mail: buh1@uks.uz

Asosiy vazifalari: Jamiyat apparati bo'yicha to'liq, aniq va o'z vaqtida buxgalterlik hisobi va hisobotlarni

yuritish. Buxgalterlik hisoblarida aktivlar holati va harakatlanishi haqida, mulkchilik huquqlari va majburiyatlari haqida to'liq va aniq ma'lumotlarni shakllantirish. Jamiyatni samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish. Boshqaruv apparati bo'yicha moliyaviy, soliq va statistik hisob-kitobni tuzish. Tasdiqlangan norma, normativ va smetalar asosida "O'zkimyosanoat" AJning mulki joy-joyidaligi va harakatlanishi, moddiy va moliyaviy resurslaridan foydalanish hisobi yuritilishini ta'minlash. Jamiyat korxonalari, tashkilotlarida zamonaviy va ilg'or hisob yuritish shakllari va uslublaridan foydalangan holda buxgalteriya hisobini yuritish ustidan metodologik boshqaruvni amalga tatbiq etish. "O'zkimyosanoat" AJning moliyaviy xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi va hisobotlarini yuritishni tashkillashtirish.

Ichki audit xizmati

Boshliq: Alimova Ziliya Taxirdjanovna

Telefon: 140-74-86

e-mail: audit1@uks.uz

Asosiy vazifalari: Jamiyat Kengashini ishonchli ma'lumot bilan ta'minlash va ichki auditni amalga oshirish natijalari asosida Jamiyat faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash; ichki auditni amalga oshirish jarayonida aniqlangan kamchiliklar haqida ularni bartaraf etish bo'yicha Jamiyat boshqaruvi organlariga tezkor tarzda tavsiyalar tayyorlash, bartaraf etishni nazorat qilish. Jamiyat kengashi tomonidan har yili tasdiqlanadigan reja asosida ushbu Nizomning 11-bandida ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha tekshirishlar o'tkazish yo'li bilan ichki auditni amalga oshirish (har chorak va hisobot yili natijalari bo'yicha); tuzilayotgan xo'jalik shartnomalarining qonunchilik talablariga mosligi bo'yicha ekspertizadan o'tkazish; jamiyat tuzilmaviy bo'limlariga buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishda uslubiy yordam ko'rsatish, ularga moliyaviy, soliq, bank va boshqa sohalarning qonunchiligi bo'yicha maslahatlar berish; Jamiyat Kengashiga texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda, tashqi audit tashkilotlarning takliflarini baholashda ko'maklashish hamda audit tekshiruvini o'tkazish uchun tashqi audit tashkilotini tanlash borasida takliflar tayyorlash.

Ishlar boshqaruvchisi

Boshliq: Xoshimov Abror Norbutaevich

Telefon: 140-74-90

e-mail: buildsherif@uks.uz

Asosiy vazifalari: Jamiyat faoliyatini moddiy-texnik ta'minlash; Jamiyat mulkidan foydalanish va uning saqlanishi undan ustidan nazorat qilinishini ta'minlash; Jamiyat mulkining hisobini yuritish; Jamiyatga tegishli obektlardan foydalanish va ularni boshqarishni tashkil etish; xodimlarga avtotransport xizmatini o'rnatilgan tartibda amalga oshirish, avtotransport sotib olish va ta'mirlashni tashkil etish; Jamiyatga tegishli obektlarda qurilish, rekonstruksiya va ta'mirlash ishlarini tashkil etish; tashkilot va fuqarolar bilan shartnomalar tuzish.

Axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligini rivojlantirish boshqarmasi

Boshliq: Axmedov Azizbek Muxamadievich

Telefon: 140-74-77

e-mail: ikt@uks.uz

Asosiy vazifalari: mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi strategiyasi va zamonaviy xalqaro moyilliklarga mos holda, "O'zkimyosanoat" AJ tizimida axborot-kommunikatsion rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash; sohaga axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish va yanada

rivojlantirish dasturlarini tatbiq etish; axborot tizimlari va resurslarini rivojlantirish, ijro apparati tuzilmaviy bo'linmalarida, jamiyatning korxonalar va tashkilotlarida axborot tizimlari boshqaruvi tuzilmalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; jamiyatning korxonalar va tashkilotlarida axborot-kommunikatsion texnologiyalarining maqsadli va manzilli rivojlanishi rag'batlantirish mexanizmlarini shakllantirishda va joriy etishda qatnashish hamda ularning axborotlashtirish, axborot tizimlarining amal qilishi va rivojlantirilishi bo'yicha ularni faoliyatini muvofiqlashtirish; ijro apparati tuzilmaviy bo'linmalarida, jamiyatning korxonalar va tashkilotlarida IKTni joriy etish yo'nalishida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish holatini monitoring qilish, ijro apparati tuzilmaviy bo'linmalari, jamiyatning korxonalar va tashkilotlarini IKTni joriy etish bo'yicha yuqori malakali kadrlari bilan ta'minlash uchun takliflar; "O'zbekimiyosanoat" AJ tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish, ma'lumotlarni qayta ishlash, telekommunikatsiya va aloqa vositalaridan foydalanish sohasida yagona texnik siyosatni shakllantirish va rivojlantirish; axborotlashtirishning asosiy yo'nalish va bosqichlarini belgilash, axborot tizimlarini qisman yoki to'liq joriy etish bo'yicha ishlarni rejalashtirish; "O'zbekimiyosanoat" AJ tizimida ichki biznes jarayonlar ishlashi uchun yangi xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish; "O'zbekimiyosanoat" AJ tizimida innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish; jamiyatning korxonalar va tashkilotlarida IKT sohasida ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini modellashtirishni tahlil, monitoring va nazorat qilish.

"O'zbekimiyosanoat" AJ tashkiliy tuzilmasi bo'yicha tushuntirish xati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-aprelda qabul qilingan 5053-sonli "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tuzilmasini maqbullashtirish va shtat birliklari sonini qisqartirish to'g'risida"gi Farmonining 6-bandi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 10-maydagi 02/19-03-32/819-sonli xatiga muvofiq "O'zbekimiyosanoat" AJ tashkiliy tuzilmasiga ijro apparati boshqaruv xodimlari sonini 10 foizga kamaytirish bilan o'zgartirishlar kiritildi.

Ta'kidlash joizki, "O'zbekimiyosanoat" AJ tashkiliy tuzilmasi oxirgi marta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekimiyosanoat" AJ boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 12-apreldagi 2884-son qarori bilan tasdiqlangan bo'lib, bu qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-martdagi 5968-son Farmoniga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan (Qonun hujjatlari Milliy Bazasi, 19.03.2020-y., 06/20/5968/0331-son).

Bundan tashqari, so'nggi yillarda hukumat qarorlariga ko'ra "O'zbekimiyosanoat" AJ tashkiliy tuzilmasida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi.

Shu munosabat bilan, "O'zbekimiyosanoat" AJning yangilangan tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash zarurati tug'ildi.

Jamiyat Ustaviga muvofiq "O'zbekimiyosanoat" AJ tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash masalasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, "O'zbekimiyosanoat" AJning yangilangan tashkiliy tuzilmasi Jamiyat yagona aksiyadori - Moliya vazirligiga tasdiqlash uchun taqdim etildi.

"O'zbekimiyosanoat" AJning yangilangan tashkiliy tuzilmasi Jamiyat yagona aksiyadori tomonidan 2021-yil 27-avgustdagi 5-son Qarori bilan tasdiqlandi va 2021-yilning 1-sentabrdan kuchga kirdi.